

TAQU rektorining 2025-yil
28 -apreldagi 137 -sonli
buyrug'iga
1-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TOSHKENT ARHITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI**

**Toshkent arxitektura-qurilish universitetida
professor-o'qituvchilarni "Sun'iy intellekt" yo'nalishi bo'yicha xorijda malakasini
oshirish yuzasidan 2025-2026-yillarda tanlov orqali saralash tartibi to'g'risida**

NIZOMI

Toshkent -2025

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Toshkent arxitektura-qurilish universiteti professor-o'qituvchilarini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda - Vazirlik) tomonidan sun'iy intellekt yo'nalishi bo'yicha xalqaro miqyosda e'tirof etilgan xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarida malakasini oshirish bo'yicha nomzodlarni saralash tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Universitet tomonidan saralash tanlovi shaffoflik asosida amalga oshiriladi.

3. Sun'iy intellekt yo'nalishi bo'yicha nomzodlarni saralash faqat Universitetning professor – o'qituvchilari (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari) o'rtasida o'tkazilib, mazkur Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

2-bob. Nizomning maqsad va vazifalari

4. Quyidagilar Nizomning asosiy maqsad va vazifalar etib belgilanadi:

sun'iy intellekt yo'nalishi bo'yicha xalqaro miqyosda e'tirof etilgan xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarida malakasini oshirish bo'yicha nomzodlarni saralash tanlovini tashkil etish;

sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirib borishni tartibga solish;

malakali kadrlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, ushbu jarayonga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda professor - o'qituvchilarning bilim va malakalarini oshirish.

3-bob. Saralash tanlovida ishtirok etish ushup hujjatlarni qabul qilish tartibi va saralash tanlovini o'tkazish bosqichlari

5. Saralash tanlovi har yili sentabr-oktabr oylari oralig'ida o'tkaziladi. Saralash tanlovi haqidagi ma'lumotlar Universitetning veb saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida bevosita e'lon qilinadi.

Saralash tanlovi o'tkazish to'g'risidagi e'lon quyidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi:

arizalarni qabul qilish muddatlari, tartibi va joyi;

saralash tanlovini o'tkazish joyi va muddatlari;

aloqa vositalari va elektron manzillar.

6. Saralash tanlovida quyidagi nomzodlar ishtirok etishi mumkin:

a) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

b) Toshkent arxitektura-qurilish universiteti asosiy shtat professor-o'qituvchilari;

c) rus va/yoki ingliz tilida erkin so'zlasha oladiganlar.

7. Saralash tanlovi ikki bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqichda talabgor Sun'iy intellekt yo'nalishlari bo'yicha universitetning veb saytida talab qilingan hujjatlarni onlaun tarzda tizimga yuklaydi. Tizimga joylangan hujjatlar ishchi guruh universitet xodimlari tomonidan tekshiriladi va mazkur nizomning talablariga javob bergan nomzodlar ikkinchi bosqichda suhbatga taklif qilinadi.

Suhbat jarayonlari mazkur Nizomning *1-ilovasi* bilan tasdiqlangan Tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Nomzodlar suhbat natijalariga ko‘ra baholanadi va stajirovkaga qabul qilinadi.

8. Stajirovkaga nomzodlar malaka talablari asosida tanlanadi va baholash jarayoni tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nomzodlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- Yoshi;
- Fuqaroligi;
- Mutaxassisligi;
- Rus/Ingliz tili darajasi va/yoki boshqa malakalar;
- SV va boshqa shaxsiy ko‘nikmalarni baholash;
- Bilimlarini Universitetda Sun‘iy intellekt yo‘nalishini rivojlanishiga yo‘naltirish istagi.

Saralash jarayonida komissiya tomonidan gender tengligiga, talabgorning yoshiga hamda til bilish darajasiga e‘tibor beriladi. Nomzodlar to‘plagan ballari teng bo‘lgan taqdirda, yeng yosh nomzodga ustunlik beriladi.

9. Saralash tanlovining barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar hujjatlarini tegishli tarzda rasmiylashtirilgan holda chop etilgan shaklda va belgilangan muddatda taqdim etadilar.

Saralab olingan professor-o‘qituvchilarni Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori 4-bandi, a-kichik bandida belgilangan tartib asosida xorijda malaka oshirishi tashkil etiladi.

4-bob. Tanlov komissiyasi

10. Nomzodlarni saralash tanlovini tashkil etish va o‘tkazish Tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Talov komissiyasi tarkibi 5 nafar universitet vakilidan iborat bo‘ladi.

12. Tanlov komissiyasi tanlov jarayonlari adolatli o‘tkazilishi, shuningdek ularning natijalari xolisligi ushun javobgar bo‘ladi.

5-bob. Apellatsiya komissiyasi

13. Ushbu Nizomga muvofiq saralash tanlovi natijalaridan norozi bo‘lgan nomzodlar tanlov natijalari e‘lon qilinganidan so‘ng 2 ish kuni ichida appellatsiya shikoyatini berishlari mumkin.

14. Apellatsiya komissiyasi shikoyatni yetti ish kunida ko‘rib chiqib, saralash tanlovi natijalarini bekor qilishi, o‘zgartirishi yoki o‘z kuchida qoldirishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi va arizachini xabardor qiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

15. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor deb topilgan shaxslar tegishli qonunchilik hujjatlari asosida javobgarlikka tortiladi.

**Professor-o‘qituvchilarni “Sun’iy intellekt” yo‘nalishi bo‘yicha xorijda malakasini oshirish yuzasidan 2025-2026-yillarda tanlov orqali saralash
Tanlov komissiyasi tarkibi**

1.	B.A.Tulaganov	Rais
2.	R.M.Xadjayev	Rais o‘rinbosari
3.	D.Sh.Mirdjalilova	a‘zo
4.	A.Sh.Fazilov	a‘zo
5.	A.T.Nigmatjanova	kotib